

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 2
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSALARIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MULTIMEDIA TOPSHIRIQLARNI LOYIHALASH VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Qandimova Nasiba Ramazonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida kreativ yondashuv asosida multimedia topshiriqlarini loyihalash va ulardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda o'qish savodxonligi darsliklaridagi hikoyalar asosida Canva platformasida yaratilgan multimedia ilovalar, interaktiv topshiriqlar hamda QR kod texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Multimedia topshiriqlarining o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunish, tahlil qilish, axborotni izlash, saralash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli vositalarni integratsiya qilish orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, kreativ yondashuv, multimedia topshiriqlari, multimedia ilova, QR kod, interaktiv ta'lim, raqamli ta'lim, hikoya, metodika.

МЕТОДИКА ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ЗАДАНИЙ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Кандимова Насиба Рамазоновна

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье рассматривается методика проектирования и использования мультимедийных заданий на основе креативного подхода на уроках читательской грамотности в начальной школе. В исследовании проанализированы дидактические возможности мультимедийных приложений, разработанных на платформе Canva на основе рассказов из учебников по читательской грамотности, а также интерактивных заданий и технологии QR-кодов. Обоснована роль мультимедийных заданий в развитии у учащихся умений понимать и анализировать текст, осуществлять поиск, отбор и эффективное использование информации. Кроме того, представлены методические рекомендации по развитию читательской грамотности посредством интеграции современных цифровых технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: начальное образование, читательская грамотность, креативный подход, мультимедийные задания, мультимедийное приложение, QR-код, интерактивное обучение, цифровое образование, рассказ, методика.

A METHODOLOGY FOR DESIGNING AND USING MULTIMEDIA TASKS BASED ON A CREATIVE APPROACH IN PRIMARY SCHOOL READING LITERACY LESSONS

Qandimova Nasiba Ramazonovna

Bukhara State Pedagogical Institute, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article discusses the methodology for designing and implementing multimedia tasks based on a creative approach in primary school reading literacy lessons. The study analyzes the didactic potential of multimedia applications created on the Canva platform, interactive tasks, and QR code technology based on stories included in primary school reading literacy textbooks. It substantiates the role of multimedia tasks in developing students' abilities to comprehend and analyze texts, search for, select, and effectively use

information. The article also provides methodological recommendations for improving reading literacy through the integration of modern digital technologies into the educational process.

Keywords: primary education, reading literacy, creative approach, multimedia tasks, multimedia application, QR code, interactive learning, digital education, story, methodology.

Kirish. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish o'quvchilarning matnni tushunishi, tahlil qilishi, axborotni izlash, saralash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Raqamli ta'lim muhitining kengayishi, interaktiv platformalar va multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'qitish metodlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, darsliklarda berilgan badiiy va ilmiy-ommabop hikoyalar asosida multimedia topshiriqlarini ishlab chiqish hamda ularni QR kod texnologiyasi orqali o'quvchilarga taqdim etish ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuv asosida loyihalashtirilgan multimedia topshiriqlari o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o'qilgan matn mazmunini chuqur anglashiga ko'maklashadi. Audio, animatsiya, interaktiv mashqlar va vizual elementlarning uyg'unligi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirib, o'qish savodxonligi bo'yicha zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Asosiy qism

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan hikoyalar o'quvchilarning o'qish, tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy didaktik vositalardan biridir. Mazkur hikoyalar nafaqat badiiy-estetik tarbiya berishga, balki o'quvchilarda axborotni idrok etish, qayta ishlash va undan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga ham imkon yaratadi. Shu sababli hikoyalar mazmunini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, ular asosida kreativ multimedia topshiriqlarini ishlab chiqish bugungi ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklaridan mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo'lgan hikoyalar tanlab olindi. Har bir hikoya mazmunidan kelib chiqib, Canva platformasi yordamida interaktiv multimedia ilovalari yaratildi. Mazkur ilovalar audio, vizual va interaktiv topshiriqlar bilan boyitilib, QR kod orqali foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu esa o'quvchilarning matnni chuqurroq o'zlashtirishi, mustaqil faoliyat olib borishi hamda o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Quyida o'qish savodxonligi darsliklaridagi ayrim hikoyalar asosida ishlab chiqilgan multimedia topshiriqlari, ularning mazmuni, didaktik imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi yoritiladi.

1-sinf "O'qish savodxonligi" 2-qismdan olingan "Axloq" rivoyati asosida tuzilgan topshiriqlar:

Suv, Olov, Axloq - uchovi do'st tutunishibdi. bir kuni ular sayrga chiqishibdi. Bir-birlarida xavotir olib Suvdan so'rashibdi:
-Agar yo'qolib qolsang, seni qayerdan topami?
-Qayerda sharillagan ovoz eshitilsa, men o'sha yerda bo'laman, -debdi Suv. so'ngra Olovdan so'rashibdi:
-Seni yo'qotib qo'ysak, qayerdan topamiz?
-Qayerda tutun ko'rsangiz, men o'sha joyda bo'laman, -debdi Olov.
Navbat Axloqqa kelganida, u shunday javob beribdi
-Meni yo'qotsangiz izlab yurmang. hech qayerdan topa olmaysiz.





1-TOPSHIRIQ

Matn mazmuniga qolgan so'zlarni yozing

"MATNNI TIKLANG"

Suv, _____ va Axloq do'st ekan. Bir-birlaridan xavotir olgan do'stlar o'zaro so'rashni boshlabdilar. Suvdan so'rashibdi:

-Agar yo'qolib qolsang, seni qayerdan topamiz?

--Qayerda _____-ovoz eshitilsa, men o'sha yerdaman.

Olovdan so'rabdilar va u shunday javob beribdi: -

Qyerda _____ ko'rsangiz, men o'sha yerda bo'laman.

Navbat _____ kelibdi: -Meni yo'qotsangiz izlab ham o'tirmang, topolmaysiz

Salbiy

Ijobiy



10



"Axloq" rivoyati.
Qr-kodni skanerlang.

2-sinf "O'qish savodxonligi" 3-qismdan olingan "Qishning ko'rpasi" hikoyasi asosida tuzilgan topshiriqlarga diqqat qiling. Quyida hikoyaning audio variant ham keltirilgan:



Qr-kodni skanerlang va audio
matnni tinglang.

1-TOPSHIRIQ

Hikoyadagi ma'lumotlarni guruhlang!

Nevarasi Bobosi

Qishning ijobiy tomoni Salbiy tomoni

Lug'at ishi

ZUM-JUDA QISQA FURSAT GALA-TO'DA TERMILMO Q-KO'Z UZMASDAN QARAB TURMOQ BO'RALAB SHIDDAT BILAN

LUG'ATLARNI DIQQAT BILAN O'QIB TUSHUNING!

22

2-TOPSHIRIQ

HIKUYADA UCHRAYDI HIKUYADA UCHRAMAYDI

01 QOR

02 Sovuq havo

03 Muz

04 Ta'til

05 Gullar

MA'LUMOTLARNI GURUHLARGA AJRATING!

23

4-TOPSHIRIQ

BERILGAN RASMLAR ASOSIDA QISHNING XUSUSIYATLARI HAQIDA GAPIRING

24

3-sinf "O'qish savodxonligi" 3-qismdan olingan "G'aroyib tanlov" hikoyasi asosida tuzilgan topshiriqlarga diqqat qiling. Quyida hikoyaning audio variant ham keltirilgan:



Qr-kodni skanerlang va audio matnini tinglang.

1-TOPSHIRIQ
Gaplarni to'ldir

Nuqtalar o'rniga tushurib qildirilgan so'zlarni qo'yib gaplarni to'ldiring

	GAPLAR	JAVOBLAR
1	Fotima juda _____ qiz ekan	
2	Singlisi Zuhra besh yong kirsam _____ hech qo'ymas ekan	
3	Oyisiga ovqatimni yedirib qo'yting, deya xarxasha qilar, _____ yechib tashar, _____ ni tarashga ham erinar ekan.	
4	Bir kuni buvisi qizlarni yoniga chaqirib "_____ nomli tanlov o'tkazishni niyat qilganini aytibdi	
5	Tanlov shartiga ko'ra, kimning xonasidan ko'p _____ chiqsa, o'sha tanlov g'olibi bo'lar ekan.	
6	_____ ning ishorasi bilan qizlar ishga kirishib ketishibdi.	
7	_____ xonasidan bir chelak chiqindi yig'ib chiqibdi.	
8	_____ quruq qo'l bilan chiqibdi va tanlov g'olibi bo'la olmasligidan xafa bo'libdi.	
9	Zuhra esa xursand bo'lganicha buvisining uni _____ deya e'lon qilishini kutib turibdi.	
10	_____ ni g'olib deb e'lon qilibdi	

43

2-TOPSHIRIQ
"QAHRAMONGA TA'RIF"

Hikoya qahramonlariga ta'rif bering. Siz qaysi qahramonga o'xshagan bo'lar edingiz?

1

2

3

44

4-sinf "O'qish savodxonligi" 2-qismdan olingan "G'aroyib tanlov" hikoyasi asosida tuzilgan topshiriqlarga diqqat qiling. Quyida hikoyaning audio variant ham keltirilgan:



Qr-kodni skanerlang va audio matnini tinglang.

_____ kun Xosiyatning dadasi qafasda sayroqi qush olib keldi. _____ glisi bilan uni tomosh qilib, zavqlani turishdi. Qushcha juda chiroyli edi. Uning harakatlarini kuzatib turgan Hidoyatbonu opasidan so'radi: -Opa, nega qushcha qo'rayapti? Opasi: -Sen ham begona odamlar oradida begona uyga kirsang qo'rqasan-ku! - deb javob berdi. -Unda biz begonamizmi? - yana hayratlanib so'radi Hidoyatbonu. -Ha, u bizni hech qachon ko'rmagan, shu sababli bizni hali tanimaydi, dedi opasi. -Opajon, keling unga o'yinchoqlarimizdan beramiz, mazza qilib o'ynaymiz, dedi Hidoyatbonu. -Qushcha o'yinchoq o'ynamaydi. Kel, yaxshisi qafasga daraxt shoxlaridan o'rtatamiz. Qushcha o'zini daraxtzorda yurgandek his qilib mazza qilib yashaydi. Opa -singil birpasda shox-shabba yig'ib kelishdi. Onasi qizlariga yordam berdi. Ular ayri shoxlardan uchtasini qafas ichiga tikka qilib qo'yishdi. Ammo qushcha hali -ham o'zini noquloy his qilib shosdan -shoxga sakrardi. -Oyijon, bu qushcha chumchuqmi? -Yo'q bolajonim bu - kanareyka. U juda yoqimli sayraydi. -Unga daraxtzor yoqdimikan? -Menimcha, sizlar mehnat bilan yasagan daraxtzor unga juda yoqdi. Qushcha yangi joyga o'rgansa sizlarga bir sayrab beradi, sizlar qoyil qolasizlar. Ertasiga kutilmaganda qushcha jarangdor ovozda sayrab yubordi. -Qushcha juda sayroqi ekan-ku! Ovozni uyni to'ldirib yubordi, - hayratlandi dadasi. -Qushlarning sayrashida hikmat bor. Ular tinchlik -omamlik mehnat, qatibot, qut-batnada bor joyda shukrona aytib sayraydi, dedi buvisi jilmayib.

58

1-topshiriq
Gaplardan matnga tegishli bo'lganlarini belgila

IZOH

✓ X

✓ X

✓ X

✓ X

○

✓ X

Hidoyatbonu qushning kanareyka ekanligini bilar edi

Opa-singillar shox-shabbadan qushga muhit yaratdilar

Opasi qushchaga ozor bergani uchun ulardan juda qo'rqdi

Qushcha yangi uyida umuman sayramas edi

Qushlarni sayrashida hikmat bor dedi buvisi

59

Tahlil va muhokama

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklaridagi hikoyalar mazmuniga mos ravishda Canva platformasi asosida multimedia ilovalari ishlab chiqildi hamda ularga QR kodlar biriktirildi. Har bir multimedia ilova o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda audio matnlar, animatsion tasvirlar, interaktiv topshiriqlar, testlar va o'yin elementlari bilan boyitildi. Mazkur topshiriqlar o'quvchilarning matnni tinglash, o'qish, mazmunini anglash, voqealarni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish hamda axborotni izlash va undan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Multimedia topshiriqlaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishi va o'quv motivatsiyasi ortishi kuzatildi. Ayniqsa, QR kod orqali multimedia ilovaga tezkor kirish imkoniyati o'quvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajarishiga qulay sharoit yaratdi. Interaktiv topshiriqlarning bosqichma-bosqich tashkil etilishi o'quvchilarning matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishiga, tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga hamda o'qish savodxonligiga oid kompetensiyalarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, Canva platformasida yaratilgan multimedia ilovalari o'qituvchiga dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, differensial yondashuvni qo'llash hamda ta'lim jarayonini vizual va interaktiv vositalar bilan boyitish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlab, o'qish savodxonligini rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida kreativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan multimedia topshiriqlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hikoyalar mazmuniga mos ravishda yaratilgan interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish hamda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Canva platformasi va QR kod texnologiyasidan foydalanish multimedia ilovalarga tezkor murojaat qilish imkonini yaratib, darslarning qiziqarli va interaktiv tashkil etilishiga xizmat qiladi. Mazkur metodika o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda zamonaviy ta'lim muhitiga moslashuvini ta'minlaydi.

Kelgusida multimedia topshiriqlarini boshqa fanlarga ham moslashtirish, sun'iy intellekt elementlari bilan boyitish va ularning ta'lim natijalariga ta'sirini eksperimental tadqiqotlar asosida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aydarova U. B., Azizova N. K. 1-sinf "O'qish savodxonligi". – Toshkent: Novda, 2025.
2. Aydarova U. B. 2-sinf "O'qish savodxonligi". I-IV qismlar. – Toshkent: Novda, 2023.
3. Aydarova U. B., Azizova N. K. 3-sinf "O'qish savodxonligi". I-IV qismlar. – Toshkent: Novda, 2023.
4. Aydarova U. B., Azizova N. K. 4-sinf "O'qish savodxonligi". I-IV qismlar. – Toshkent: Novda, 2023.
5. Rahimova M. Boshlang'ich ta'limda kreativ yondashuv asosida ta'limni tashkil etish. – Toshkent, 2022.
6. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). PIRLS 2021 International Results in Reading. – Amsterdam: IEA, 2023.